

BOLA TA'LIM- TARBIYASIDA OTA ONANING ÖRNI

Mardonov Erkin Xasanovich

Termiz davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

Ergasheva Gulorom Ubaydulla qizi.

*Termiz davlat pedagogika instituti xorijiy til va adabiyoti fakulteti ingliz tili
yönalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Bu maqoladan bola tarbiyasi hozirgi kunda jamiyat miqyosidagi muammo ekanligi, uning qanday amalga oshirilishi, bola ta'limgarbiyasida mas'ul kishi faqatgina uning ta'lim muassasasidagi oqituvchilarigina bolib qolmasdan uning ota-onasi ham unga mas'ul ekanligi haqida va bola tarbiyasidagi yollardan qoyiladigan xatolar haqida fikr yuritiladi.

Kalit sozlari: Ta'lim, tarbiya, odob-axloq, oqituvchi, tarbiyachi, ota-onsa, maktab muhiti, pedagog, oila, ta'lim-tarbiyasifati, mukammal ilm sohibi, kelajak avlod, vatan, shaxsiyat.

Kirish

Ta'lim - bilim berish va malumotlarni özlashtirib, shu malumotlar orqali mustaqil hayotga tayyorlanish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayonda individ ta'lim olish, bilim va konikmalarni qolgaga kiritish bilan birlilikda alohida, jamiyatda oz orniga ega mukammal shaxs sifatida tarbiyalanganadi. Bundan shuni anglash kerakki, inson talimda bilim olishdan tashqari shaxs sifatida tarbiyalanganadi.

Tarbiyasiz talimni tasavvur qilib bolumaydi. Bu ikki tushuncha bir-biriga chambarchas bogliq hisoblanadi va ularni ayro tasavvur qilish qiyin. Inson yaxshi, mukammal talim olishi uchun u avvalo tarbiyalangan boliishi shart hisoblanadi. Tarbiyalangan insonga mukammal ilm sohibi sifatida qarash mumkin, chunki u bu bilimni olish uchun yetarlicha tarbiya korgan hisoblanadi. Mamlakat kelajagini ham ta'lim va tarbiyasi yuqori bolgan kelajak avlodsiz kora olmaymiz va mamlakat ertasi ta'lim-tarbiya sifati va oquv muassasalaridagi talim jarayonining darajasi bilan bogliqdir.

"Kelajak yoshlar qolida" degan fikr ham bejiz aytilmagan. Chunki yurt kelejagini uning bilimli yoshlari belgilab beradi. Bu yoshlarni tarbilayalashda ularning ota-onalarining orni beqiyos hisoblanib, ta'lim-tarbiya avvalo oilada boshlanadi. Shuning uchun ham oilani "kichik vatan" ham deb atashadi. Aynan shu Vatan bola uchun dastlabki tarbiya maktabi bo'ladi. Qaysidir ma'noda ota-onsa farzandining birinchi oqituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onaning o'zi ham yuksak axloqiy sifatlarga ega bolmog'i kerak. Bolaga o'zi yaxshi fazilatlar bilan o'rnak bo'la oladigan ota-onaning farzandi kelajakda go'zal xulqli, yuksak ilmli, xalqqa foydasi tegadigan barkamol shaxs bo'ladi.

"Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Aynan shu vaqt oralig'i ota-onadan katta mas'uliyatni talab etadi. Mana shu vaqtida ota-onada o'z farzandiga ko'proq e'tibor berishi, uning tarbiyasi bilan jiddiy shug'llanishi kerak. Ayna shu davrda bolaga to'g'ri tarbiya bera olish juda muhimdir. Bolani tarbiyalashda yo'l qo'yiladigan xatoliklar haqida ko'rib chiqaylik:

1. Bolani doimiy ravishda tanqid qilish uni o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qolishiga, mustaqil fikrlay olmasligiga olib keladi. Mustaqil fikriga ega bo'lmayan inson hayotda o'z o'rniha ham ega bo'lmaydi.
2. Ko'pchilik insonlar ular bilan suhbatlashadigan insonni emas, uni tinglaydigan insonni qidirishadi. Bola ham o'zini tinglaydigan insonni qidiradi. Agar bolani uyda fikri umuman tinglanmasa, qo'llab-quvvatlanmasa undagi ishtiyooq so'nadi, odamlarning orasida erkin bo'lolmaydi, o'z fikrini aniq, ravon bayon etolmaydi.
3. Bolani hamma aytganini qilaverish ham uning erkatoj, tantiq qisqa qilib aytganda tarbiyasining buzilishiga olib keladi.
4. Keragidan ortiq e'tibor ham bolani tarbiyasiga yomon ta'sir qiladi. Bolaga o'zi qila oladigan ishlarini qilishga imkoniyat yaratib berish kerak. Agar u qila oladigan har bir ishni qilib bersa bola ota-onaning ko'magiga o'rganib qoladi. Bu kelajakda ham ota-onada ko'magisiz hech bir ish qila olmaydigan inson bo'lishiga olib keladi.
5. "Urib jazolashdan tiyilish kerak. Bu bolani kelajakka yana xato qilmaslikka o'rgatmaydi" [6].
6. Bolani juda erkin qo'yib qo'yish, uning taltayishiga olib keladi.
7. Bolaga o'ta muloyimlik qilish ham uning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'tmishdan bugungacha xalqimiz tomonidan allomalar, avlod-ajdodlardan faxrlanish, ular merosini mukammal o'rganish, olg'a surilgan hayotiy g'oyalardan jamiyatimiz gullab-yashnashi yo'lida foydalanish, davlat ramzlarining mohiyatini anglash aynan oilada amalga oshirila boshlangan.

Sohibqiron Amir Temur ham o'z davrida o'g'il uylantirish, kelin tanlash hamda farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targanligi ham beziz emas. Oilaning mustahkam bo'lishidagi asosiy mas'uliyat oila boshlig'i zimmasida, deb bilgan Sohibqiron: «O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng

ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl – nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Odamlar orqali salomatligini, jismoniy kamolotini aniqladim, odob - axloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo‘lsagina el-yurtga katta tomosha berib, kelin tushirdim» - deydi.

Oilada farzand tarbiyasida eng muhim usul bu shaxsiy namunadir. Ota-onaning xatti-harakatlari, yurish-turishi, muomalasi, o‘zaro munosabatlari farzandlarga namuna sifatida katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. E’tibor qilganmisiz, ota-onaning o‘zaro janjallari, oilaga, jamiyatga, atrof-muhitga salbiy munosabati, ro‘zg‘orni yuritishdagi pala-partishlilik sharoitida o‘sgan bolalar hayotda ko‘p adashishadi. Aksincha, oiladagi yuksak ahloqiy munosabatini ko‘rgan bola kelgusida oila qurganda ham o‘z turmush o‘rtog‘i bilan shunday yashashga tayyor bo‘lib boradi.

Xulosa

Xullas, bolaning kamol topishi uchun o‘qituvchi ham, ota-onha ham xatto o’sha bolaning o’zi ham harakat qilishi kerak ekan. Shundagina o’sish bo’ladi, natija bo’ladi. Bolani tarbiyalashda ota-onaning o’rni beqiyosdir. Ota-onha o’z farzandini kamoli uchun uning tarbiyasiga, ilm olishiga e’tiborli bo’lishi kerak. Jamiyat taraqqiy etmog‘i uchun tarbiya samarali bo’lishi kerak. Samarali tarbiya uchun ota-onha ilmlli tarbiyali bo’lishi kerak. Farzandlarimiz ilmlli va tarbiyali bo’lishi uchun o’zimizni ma’naviy rivojlantirishimiz va atrofdagi bolalar tarbiyasiga ham befarq bo’lmaslik zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Al-jome' as-sahih" asari. Ilm o’rganmoq va ilm o’rgatmoqning fazilati to‘g’risidagi hadis.
2. Karamatova D.S. Sinfdan tashqari mashg’ulotlar orqali o‘quychilarini ijodiy faoliyatga yo’naltirish metodlar.
3. Maktab oiladan boshlanadi. - T.: Yangi asr avlod. 2013.
4. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o’rni
5. Salaeva M.S. O’zbek oilalarida bolalarning o’z oilasidagi hayotga munosabatlarining etnopsixologik xususiyatlari. /«O’zbek oilasining iqtisodiy va ijtimoiy psixologik muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani mahruzalari to’plami. –TDIU. 24-25 may 2000 yil. –B. 81-82.
6. Mardonov, E. (2023). O‘QUVCHILARDA TAFAKKUR XUSUSIYATLARINI RIVOJLANISH JARAYONI . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8472>